

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
rektor

Sh. A. Boymurodov
« 05 » 06 2025 yil

FAKULTET ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA-2
(moduli) O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	900000	- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910000	- Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishi:	60910100	- Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi FOS21676	O'quv yili 2025-2026	Semestr 7	Kreditlar 3 (7 semestr)
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim turi O'zbek/rus		Xaftadagi dars soatlari 3
1. Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
FOS2	45 (7 semestr)	45 (7 semestr)	90 (7 semestr)
2. I.Fanning mazmuni	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan uslublarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali, ya'ni tish qattiq to'qima va tish qatorlari nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmlari, klinikalari, tashxis va qiyosiy tashxislari va davolash usullari hamda ularni oldini olish chora-tadbirlarini o'rgata borish va shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari: fanning bo'limlariga tegishli bilimlar bilan talabalarni bosqichma-bosqich tanishtira borish, o'rgata borish va ko'nikmalarni hosil qilish, yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq yetib, talabani klinik fikrlash qobiliyatini o'stirish va bilimni saqlash darajasini oshirish; talabning klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga yetkazish; fan sohasiga ta'luqli tish qattiq to'qima va tish qatorlari nuqsonlarining tashxisi va qiyosiy tashxisi bosqichlarini, davolash va profilaktika usullarining zaruriy jihatlari to'g'risida ma'lumot berish.</p> <p>Fanning yetakchi TOR-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:</p> <p>Ortopedik stomatologiya fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Farabi universiteti (Qozog'iston)ning Analitik kimyo fanining o'quvdasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 163-o'rinni egallagan bo'lib, Stomatologiya sohasi bo'yichayuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1.Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>7-semestr</p> <p>1-mavzu. Qisman tish qatorlari bo'lgan bemorlarni tekshirish usullari. Tish qatorlarini yoyli protezlar bilan protezlashda intraoral skanerlardan foydalanish.</p>		

Qisman tish qatorlari nuksonlarining tashxislari, Epplgeyt kordalari. Tayanch tishlarga bulgan talablar. Tayanch tishlarni byugel protez bilan davolashga tayyorlash. Byugel protezlarga kursatmalar, tarkibiy qismlari. Bemorlarning individual anatomik ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda yoyli protezlarni rejallashtirishda su'niy intellektidan foydalanish. Byugel protezlarning yoylari (katta konnektorlar). Kichik konnektorlar. Ularning vazifasi, turlari.

2-mavzu. Klammerlar (tugri reteynerlar), ularning turlari, vazifalari. Klammerlarning tarkibiy qismlari. Klammerlarga bulgan talablar. Attachmenlar. Ularning turlari. Yoysimon protezlarning boshqa turdagi fiksatsiyalovchi elementlari. Yoyli protezlar qismlarini tayyorlashda CAD/CAM sistemasidan foydalanish.

3-mavzu. Klammerli va attachmenli yoyli protezlar tayyorlashning klinik laboratoriyalari. Qolip olish, markaziy okklyuziya va tishlarning balandligini aniqlash.

4-mavzu. Byugel protezni yoyini ogizda tekshirib kurish. Yoyli protezlarni tayyorlash jarayonida uchraydigan xato va asoratlar, ularni oldini olish va bartaraf etish. Kayta yuzalash (perelitsovka) va kayta asoslash (perebazirovka) tushunchalari.

5-mavzu. Zamonaviy xom ashyolardan (vailplast, kadroti) yoyli protezlarni tayyorlash. Ularni ijobiy va salbiy tomonlari. Yoyli protezlarni tayyorlashda 3D chop etishdan foydalanish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

7-semestr

1-mavzu. Tish qatorlarning qisman nuksonlarini byugel (yoysimon) protezlar bilan davolash. Byugella protezlarga kursatmalar, tarkibiy qismlari. Yoysimon protezlarning klinik-laboratoriyalari bosqichlari. Tayanch tishlarga bulgan talablar. Tayanch tishlarni byugel protez bilan davolashga tayyorlash. Tayanch tishlarni koplama bilan koplashga kursatmalar. Parallelometriya.

2-mavzu. Byugel protezlarning yoylari (katta konnektorlar). Yukori va pastki jaglarda kullanaladigan katta konnektorlar. Ularga bulgan talablar. Kichik konnektorlar. Ularning vazifasi, turlari. Utga chidamli modellarni tayyorlash, byugel protezlarning yoyini kuyish.

3-mavzu. Klammerlar (tugri reteynerlar), ularning turlari, vazifalari. Klammerlarning tarkibiy qismlari. Klammerlarga bulgan talablar. Klammerlar uchun xom ashyolar. Tish toj kismning ekvatori va oraliq chizig'i. Ilmoq chizig'i. Tayanch – ushlab turuvchi klammerlar, tayanch kismning turlari. (McCracken's buyicha). Ney tizimi klammerlari.

4-mavzu. Attachmenlar. Ularning turlari. Yoysimon protezlarning boshqa turdagi fiksatsiyalovchi elementlari (balkali maxkamlash, teleskopik tizim va boshkalar).

5-mavzu. Byugel protezni yoyini ogizda tekshirib kurish, xato va kamchiliklarni bartaraf etish. Yoyli protezning asosi (egarsimon kismi). Suniy tishlarni terish. Tayyor yoyli protezga oxirgi ishlov berish. Polimerizatsiya. Tayyor bulgan byugel protezni bemorning tish qatoriga moslashtirish va uni bemorga topshirish. Byugel protezlaridan foydalanish koidalari.

6-mavzu. Zamonaviy xomashyolardan (vallplast, kadrotti) yoyli protezlarni tayyorlash. Ularni ijobiy va sarbiy tomonlari. Klimik-laborator boskichlari Yoyli protezlarni tayyorlash boskichlarida uchraydigan xato va kamchiliklar. Ularni oldini olish. Qiytasoslash va qayta yuzalash xaqida tushunchalar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jibozlangan auditoriyada bir **akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur.** Mashg'ulotlar faoli va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

7-semestr

1. Yoyli protezlarni tayyorlash uchun ishlatiladigan xomashyolarning turlari.
2. Parallelometriya. Parallelometr turlari.
3. Attachmentlar turlari.
4. Yoyli protezlar uchun ishlatiladigan klammer turlari.
5. Yoyli shaklini tanlash mezonlari.
6. Dental implantarlarda tayangan yoyli protezlarni tayyorlash uziga xos tomonlari.
7. Yoyli protezlarni tayyorlashda uchraydigan xato va kamchiliklar, ularni bartaraf etish.

Talaba mustaqil ismi tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftariarida aks ettirish.
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkiliashirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftariarida aks ettirish.
- bemorlarni parvarish qilishda davolovchi yoki navbatchi xamshira ishtirok etishi.
- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarini suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish.

- ayrim nazariy mavzalarni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish.
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash.
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiy (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish.
- vaziyatli va kimik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

3. V.Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetentsiyalari

Talaba bilishi kerak:

7 semestr yakunida

Talaba:

- kisman olib quyiladigan protezlarning tayanch-ushlabturuvchi kislarni tugrisida, implantatlarga tayanib turuvchi shartiy olib-qo'yiladigan protezlar tugrisida *tasavvurga ega bo'lishi*;(bilim)
- parallelometriyani, kisman olib quyiladigan protezlar uchun ishlatiladigan xomashyolarning turlarini, *bilishi va ularidan foydalanish*, (ko'nikma)
- yuzning pastki kismining balandligi yukotilganda tishlov balandligini va markaziy okklyuziyani aniqlash *malakalariga (shu jumladan kimik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.*

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

7-semestr

- 1) Yukori va pastki jag modellarida yoyisimon protezlarning chegarasini chizish
- 2) Suniy tishlar rangini aniqlash.
- 3) Mumli asos bilan mumli bolishchalar yordamida tish kasoflarining kisman nuksonlarida markaziy okklyuziyani aniqlash.

4. VI.Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- Ma'ruzalar.
- Interfaol keys-stadi.
- Guruhlarda ishlash.
- Taqdimotlar tayyorlash.
- Individual loyixalar.
- Jamoa bo'lib ishlash va hayoqa qilish loyixalari.
- Rolli o'yinlar, munozaralar.

UK 1¹. Abstrakti fikr yuritish, hodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish.

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati.

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik.

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik.

UKK 1². Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak

VILKreditlarni olish uchun talabalar:

Joriy nazorat shaklda berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki savollarga javob berish va amaliy ko'nikmani bajarishlari lozim.

VIII. Nazorat turlarini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar.

JORIY NAZORAT (JN)

Joriy nazoratda talabani modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Fakultet ortopedik stomatologiya-I moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, bemorlar bilan ishlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabani bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bifim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 60 ball.

Modul o'quv dasturida belgilangan mavzular bo'icha auditoriya va auditoriyadan tashqari (MOODLE, HEMIS platformalarida) mashg'ulotlarning barchasidan ijobiy (**60 ball va undan yuqori**) baho olgan talabalarga yakuniy nazoratga kirishga ruxsat beriladi.

² UKK – yuzma-kasbiy kompetensiyalar

Auditoriya va auditoriyadan tashqari (MOODLE, HEMIS platformalarida) mashg'ulotlarda guruhdagi barcha talabalar bitta jumalning ikkita alohida betlarida har-bir darsda baholab boriladi.

Fan bo'icha semestrda ajratilgan auditoriya yoki auditoriyadan tashqari (MOODLE, HEMIS platformalarida) mashg'ulotlarning 25% ini va undan ko'p qismini uzrli sabablarisiz qoldirgan ta'laba darsdan chetlatiladi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

Fan bo'icha semestrda ajratilgan auditoriya yoki auditoriyadan tashqari (MOODLE platformasida) mashg'ulotlarning kamida ikkitasini yoki undan ko'pini uzrli sabablar bilan qoldirgan ta'laba dekanat ruxsatnomasi asosida semestr yakuniga qadar qayta topshirishga ruxsat beriladi. Qoldirilgan mashg'ulotlarni qayta topshirishning oxirgi muddati yakuniy nazorat (OSCE) sinovlari haftasigacha belgilanishi kerak.

Modul o'quv dasturida belgilangan mavzular bo'icha auditoriya va auditoriyadan tashqari (MOODLE, HEMIS platformalarida) mashg'ulotlarning barchasidan ijobiy (**60 ball va undan yuqori**) baho ololmagan talabalarga yakuniy nazorat sinovlarini topshirishga **ruxsat berilmaydi**.

Semestr yakunida modul bo'yicha yakuniy ijobiy natijaga erishmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi va unga kredit berilmaydi.

5.2. Fan/modul bo'yicha talabalarda amaliy ko'nikmalarni egallashni nazorat qilish va bilimni baholash mezonlari

Baholash shkalasi	Bayoni
Egalladi	100%- kompetensiyani to'liq biladi, ketma-ketlik bo'yicha to'liq bajara oladi, mohiyatini to'liq tushuntirib bera oladi
Egallamadi	50%- kompetensiyani bilmaydi, ketma-ketlik bo'yicha bilmaydi, mohiyatini tushuntirib bera olmaydi

Modul(fan) bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rif	Baho	Ta'rif
90-100	A	"a'lo" – a'lo natija, minimal	5	a'lo

		hatoliklar bilan	<p>ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'mida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>fan/modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>fan/modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>fan/modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
70-89,9	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija,	<p>fan dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'mida foydalanishi, savollarga</p>	4	yaxshi

		ayrim xatoliklar bilan	<p>javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>fan/modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>fan/modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-69,9	C	"qoniqarli" - o'rtac	<p>Fan/modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo</p>	3	qoniqarli

		ha natija, sezilar li xatoli k-lar bilan	<p>bir oz kamchiliklar bilan, terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rinda foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi, fan/modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; amaliy mashg'ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; fan/modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
--	--	--	---	--	--

55-59	E	"qoni qarsiz " - minim al daraja -dagi bilim- larni olish uchun qo'shi mcha musta qil o'zlas h- tirishi zarur	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega emas, terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishda yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiymalganda va qo'pol hatolarga yo'l qo'yganda, fan/modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi; kompetensiyalarni mustaqil darajasida va hatoliklar bilan egallashi; fan modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olmasligi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi; o'qilayotgan fan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olmasligi;</p>	2	qo niq ars iz
31-54	FX	"qoni qarsiz "	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; ilmiy terminlarni ishlati olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa, amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa</p>	2	Qoni qarsi z
0-30	F	"mutl oq qoniq	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa,</p>	2	Qoni qarsi z

ar-siz" - to'liq qayta o'zlashtirishi lozim	terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish masdaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.
---	--

Talaba mustaqil ishini baholash jadvali

O'qituvchi hamrohligidagi talaba mustaqil ishi (O'HTMI) (Office hours)- auditoriyada olib boriladigan kredit ta'lim tizimidagi mustaqil ta'limning bir turidir. 2 va 3 kurslarda auditoriyada talabalar uchun dars sifatida olib boriladi. Ikkita funktsiyaga ega - maslahat va nazorat. **Maslahat funktsiyasi:** Eksperimental ishchi o'quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo'yicha talabalarning mustaqil ishlarida pedagogik jihatdan tegishli yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

Talabaga dasturiy materialni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan ish usullarini tanlashga yordam beradi. Talaba uchun qiyin bo'lgan mavzuning izohini qayta tinglash, o'quv materialini mustahkamlash bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarish imkoniyatini yaratadi.

•O'quv materialini chuqur o'rganishga yordam beradi. Odatda u talabalar oldindan tayyorlanishi kerak bo'lgan ma'lum bir mavzuga bag'ishlangan bo'ladi.

•Talabaning o'zini ko'proq qiziqtirgan ilmiy yo'nalish bo'yicha mustaqil ishini chuqurlashtirishga hissa qo'shadi.

Nazorat funktsiyasi:

• Talabalar bilimni joriy nazorat qilish. Xuddi shu darsda talaba dasturda nazarda tutilgan nazorat mavzularini va TMI uchun topshiriqlarni topshiradi

•Yuqori baho olish uchun kerakli (etishmayotgan) ballarni to'plashning real imkoniyati mavjud.

O'HTMI dars vaqtida jadval bo'yicha o'tkaziladi, lekin mustaqil ishlay oladigan talabalar uchun bu shart emas. Shunday ekan, har bir o'quvchining o'quv yutuqlarini doimiy nazorat qilib borish va ularni barcha talabalar darsni muvaffaqiyatli o'zlashtirib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tishlari uchun to'g'rilab borish o'qituvchining muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'quv jurnalida O'HTMI alohida sahifada talabaning mavjudligi yoki yo'qligi (+ yoki d/b) ko'rinishida qayd etiladi.

Talabaning mustaqil ishi (TMI) kalendar-mavzuy reja asosida amalga oshiriladi. Kafedrada mustaqil ish sifatida yuqorida TMI bo'limida tavsiflangan bir nechta turlari belgilangan. Har bir mavzu bo'yicha o'quvchilarga 12 tagacha vazifani tanlash imkoniyati taklif yetiladi. Talabalar har bir kredit uchun 1 ta topshiriqni tanlashlari mumkin. Kafedrada talabalarga yordam berish maqsadida har bir TMI shaklini amalga oshirish bo'yicha yo'riqnomalar (uslubiy tavsiyalar) ishlab chiqilgan. TMI ni baholashning ob'ektivligini maksimal darajada oshirish uchun o'quv dasturida tavsiflangan (har bir TMI uchun 100 ball) baholash bali mezonlari ishlab chiqilgan. TMI (vaziyatli topshiriqlar, tashxislash algoritmlari, davolash chizmalari va boshqalar) ni topshirish muddati mavzuy reja bo'yicha (mavzu tahlil qilingan kuni) amalga oshiriladi. TMI topshirmagan talaba JN bo'yicha kreditni to'liq o'zlashtirmagan deb hisoblanadi.

O'quv jurnaliga TMI bandida baholash bali quyidagi tartibda qo'yiladi: suratda olingan ball, maxrajda yesa topshirilgan mustaqil ish mavzusining raqami kiritiladi.

YAKUNIY NAZORAT (YN)

Modul bo'yicha yakuniy baho quyidagi nisbatda hisoblanadi:

Auditoriya mashg'ulotlaridan o'rtacha joriy ball	Auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari o'rtacha joriy ball (Moodle platformasida)	Oraliq nazorat (ON)	OSE sinovlaridan to'plagan ball
33,3%	33,3%	0%	33,3%

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba YaNga kiritiladi. YaN modul yakunida OSKE + test shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. OSKEda 8 stantsiya, ulardan 7 ta savol va 1ta amaliy ko'nikma beriladi. Xar bir savolga 12 ballidan, amaliy kunikmaga - 16 ball beriladi. Maksimal ball 100, o'tish bali 60 ball. YaNda saralash balini (60) yig'a olmagan talaba YaNdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda to'liq kreditni yig'gan bo'lsa ham).

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet

8. Fan/modul uchun ma'sullar:
A.N.Akbarov –TDSI, "Fakultet ortopedik stomatologiya kafedrası" mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor.
O.U. Arslanov –TDSI, "Fakultet ortopedik stomatologiya kafedrası" dotsenti, tibbiyot fanlari doktori, dotsenti.
N.S.Ziyadullaeva – TDSI "Fakultet ortopedik stomatologiya kafedrası" professori, tibbiyot fanlari doktori, dotsent
K.N. Shoahmedova – TDSI "Fakultet ortopedik stomatologiya kafedrası" dotsenti
9. Taqrizchilar:
A.A. Axmedov – SamDTU, Ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari doktori, dotsent.
N.M. Alieva – TDSI, Ortopedik stomatologiya propedevtikasi kafedrası dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi

Fakultet ortopedik stomatologiya 2 modulidan sillabus

To'liq nomi	Fakultet ortopedik stomatologiya 2		
kodi: FOS21676	Kredit hajmi 7 semestrda: JB – 3,0; OB – 0 kredit; YaB – 1 kredit.	Modul o'tilish davri: 6-7 semestr	ECTS value: 230
Ta'lim yo'nalishi	60910100 – Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)	4-bosqich bakalavrlari	
Modulning davomiyligi	6 kun		
O'quv soatlari xajmi:	Jami soat:	90	
	Shuningdek:		
	ma'ruza	10	
	amaliy mashg'ulot	35	
	mustaqil ta'lim	45	
O'quv modulining statusi	Klinik modullar bloki		
OTM nomi, manzili	TDSI		
Kafedra nomi	Fakultet ortopedik stomatologiya		
Mazkur kursning o'qituvchilari haqida ma'lumot	Lektorlar F.I.Sh.: Irsaliev X.I. Arslanov O.U. Tulyaganov J.Sh. Xabilov B.N. Irsalieva F.X.	E-mail: x_irsaliev@mail.ru E-mail: dr.otabek1978@inbox.ru E-mail: stom.jama@mail.ru E-mail: bekozdx@bk.ru	

	Amaliy mashg'ulot o'tkazuvchilarning F.I.Sh.: Akbarov A.N. Irsaliev X.I. Arslanov O.U. Tulyaganov J.Sh. Xabilov B.N. Irsalieva F.X. Ibragimov A.X. Achilov Sh.M. Xabilov D.N.	E-mail: yuzal@rambler.ru E-mail: x_irsaliev@mail.ru E-mail: dr.otabek1978@inbox.ru E-mail: stom.jama@mail.ru E-mail: bekozdx@bk.ru
Mashg'ulot vaqti va joyi	TDTU	
Modulning mazmuni	Fakultet ortopedik stomatologiya 2 moduli bo'lajak mutaxassisga tish qatorlari nuqsonlarini tiklaydigan olinadigan protezlarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari bilan tanishtirish moduli bo'lib hisoblanadi.	
Prerekvizitlar	Anatomiya, fiziologiya, kimyo, biofizika, ortopedik stomatologiya propedevtikasi, olinmaydigan tishlar bilan protezlash, FOS 1 modullari nazariy zamin hisoblanadi.	
Postrekvizitlar	FOS 2 to'liq olib qo'yiladigan tishlar bilan protezlash, dental implantologiya, parodontologiya kabi fanlarga zamin bo'lib xizmat qiladi.	
Modulning maqsadi	Talabalarni klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan uslublarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali, ya'ni tish qattiq to'qima va tish qatorlari nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmlari, klinikalari, tashxis va qiyosiy tashxislari va davolash usullari hamda ularni oldini olish chora-tadbirlarini o'rgata borish va shakllantirishdan iborat.	
Modulning vazifalari	Modulning bo'limlariga tegishli bilimlar bilan talabalarni bosqichma-bosqich tanishtira borish, o'rgata borish va ko'nikmalarni hosil qilish; yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etib, talabani klinik fikrlash qobiliyatini o'stirish va bilimni saqlash darajasini oshirish; talabani klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga etkazish; modul sohasiga ta'luqli tish qattiq to'qima va tish qatorlari nuqsonlarining tashxisi va qiyosiy tashxisi bosqichlarini, davolash va profilaktika usullarining zaruriy jihatlari to'g'risida ma'lumot berish.	

<p>Modul bo'yicha talabalar ko'nikma maqsadlariga qo'yiladigan talablar</p>	<p>VII semestr yilida</p> <p>Talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - kisman olib quyiladigan protezlarning tavsifch. ushlabturuvchi kislmlari haqida, implantatlarga tayymlab turuvchi sharty olib quyiladigan protezlar haqida tasavvurga ega bo'lishi. - parafelometriyani, kisman olib quyiladigan protezlar uchun ishlatiladigan xomashyolarning turini, bilishi va ulardan foydalana olishi. - yuzning pasiki kismning balandligi yukotilganda tashlov balandligini va markaziy okklyuziyani aniqlash ma'lakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.
<p>Talim berish usullari</p>	<p>Mas'uzalar Amaliy mashg'ulotlar.</p>
<p>Tamimot</p>	<p>Videofilmlar, multimediyali va o'qituvchi kompyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo'yicha nazariy bilimlarni so'lashdan foydalaniladi: bakalavrlarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.</p>